
Farg'ona shahrida bolajonlarning xatna to'ylari o'tkazildi

Bugun Farg'ona shahridagi "Ko'ksaroy" tantanalar majmuasida "Bahor" mahalla fuqarolar yig'inidagi boquvchisini yo'qotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan oilalarning 11 nafar farzandlarining xatna to'ylari shahar hokimligi va saxovatpesha tadbirkorlar tomonidan o'tkazib berildi.

Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan tashkillangan tadbirda viloyat va shahar hokimliklari vakillari, sektorlar rahbarlari, mahalla fuqarolar yig'inlari xodimlari hamda to'y bolalarning oila a'zolari ishtirok etishdi.

Yurtimizda har bir oila, har bir bola baxtli bo'lishi uchun xalqchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Tantananing ochilish marosimida shahar hokimi Vosiljon Nazarov hamda mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i Bahodirjon Xoliqovlar so'zga chiqishib to'y bolalarga Vatan koriga yaraydigan kamarbasta insonlar bo'lishlarini tiladilar.

Tadbir davomida bolajonlarga to'yona sifatida sovg'alar ulashildi. Tantanali shodiyona jajjigina o'g'lonlar xotirasida yaxshilik, mehr va saxovat, shu bilan birgalikda Vatanga bo'lgan muhabbat ramzi sifatida bir umrga muhrlanib, ularni hamisha xayrli ishlarga undab turishiga ishonamiz.

To'y marosimida viloyatimizdagi xushovoz xonandalar tomonidan kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Bolajonlar oila a'zolari bilan birgalikda raqsga tushib madaniy hordiq chiqardilar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-16 11:38:06